



ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ

МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ

№1
26 МАРТ

2020

Конференцияга қуйидаги шўъбалар бўйича мақолалар қабул қилинади:

1. Санъат ва маданият фанлари
2. Тарих фанлари
3. Фалсафа фанлари
4. Филология фанлари
5. География фанлари
6. Педагогика фанлари
7. Психология фанлари
8. Социология фанлари
9. Ижтимоий-гуманитар фанлари
10. Жисмоний маданият

 I WORLD of
JOURNALS

 Google Scholar

 Academic
Resource
Index
ResearchBib



<http://oac.dsmi-qf.uz>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI

“ORIENTAL ART AND CULTURE” ILMIY-METODIK JURNALI

“O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM”

KONFERENSIYASI TO'PLAMI
(3-QISM)

26 Mart 2020 yil



Qo'qon shahri

ZAMONAVIY USLUBLAR YORDAMIDA TOVUSH TALLAFUZ BUZILISHLARINI KORREKSIYALASH

Muzaffarova Hayitgul Nesibovna
hayitgulnesibovna@gmail.com
Islomova Ozoda Sayfiddinovna
islomovaozoda25@mail.ru
Jizzax davlat pedagogika instituti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tovush talaffuz kamchiliklarining turlari, kelib chiqish sabablari, umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarning tovush talaffuzidagi kamchiliklari, tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etishda har bir o'quvchi shaxsidan kelib chiqib yondashish, nutqda hosil qilingan tovushni bo'g'inlarda va so'zlarda "Nilufar guli" metodi orqali mustahkamlash.*

***Kalit so'zlar:** dislaliya, nutq, buzilish, nilufar guli, individual, termin, tovush, talaffuz, mexanik (organik), periferik, usul, shaxs, ta'lim, yo'naltirilgan.*

Odamning nutqida namoyon bo'ladigan xilma-xil tovush birikmalari uning ichki holatini ifodalabgina qolmasdan, shu bilan birga oyektiv ravishda mavjud bo'lgan narsalar va hodisalarning nimaligini bildiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Tovush talaffuzidagi kamchiliklar asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydi, bu kamchiliklar umumiy birlashtirilib logopediyada dislaliya deb ataladi.

Dislaliya deb tovushlarning buzilgan talaffuziga aytiladi. Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-buzilish, laliya-nutq degan ma'noni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Etiologik belgilarga ko'ra dislaliya ikki shaklga bo'linadi: mexanik (organik) va funksional. Mexanik (organik) dislaliya periferik nutq apparatining (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasida yuzaga keladigan talaffuz kamchiliklari. Funksional dislaliyada periferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday buzilishlar kuzatilmaydi. Bu termin birinchi bo'lib Vilnos Universitetining shifokori professor I.Frank tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va hozirda ham, o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin. Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan : sonor (r, l), sirg'luvchi (s, z), shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida asosan sonor (r, l) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuztiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilar tovush talaffuzidagi buzilaishlarni, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat

va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim muassasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2015 yil 25 sentyabrdagi 22-mh, 36, 39-QQ-son qaroriga binoan umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida tashkil etilgan logopediya shoxobchalarida, faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-logopedlar tomonidan tuzatish ishlari bosqichma-bosqich, o'quvchilarning individual xususiyatlarini kelib chiqib shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslanib, guruhli va yakka tartibdagi mashg'ulotlar tashkil etilib, bosqichma-bosqich olib boriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim markazida o'quvchi shaxsi turadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi o'quvchining ma'naviyatli, salohiyatli, har tomonlama intellektual, zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, jismonan sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishdir. Tovush talaffuzdagi buzilishlarni bartaraf etish ishlari, to'g'ri tashkil qilingan guruhli mashg'ulotlarda olib boriladi. Nutqdagi buzilishga uchragan tovushni, nutqda hosil qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi.

- Taqlid usul
- Mexanik usul
- Aralash usul

Yuqoridagi usullar orqali o'quvchi talaffuzidagi buzilgan tovushni uning nutqida hosil qilingandan so'ng, hosil qilingan tovushni ochiq, yopiq bo'g'inglarda mustahkamlanadi. Keyingi bosqichda bo'g'inglar so'zlarda mustahkamlanadi. Nutqda hosil qilingan tovushni mustahkamlash uchun "Nilufar guli" metodidan foydalaniganda kutilgan natija samarali bo'ladi.

Bu metodika orqali nutqda hosil qilingan tovushni (har qanday buzilgan) so'z boshida, o'rtasida va oxirida mustahkamlashda o'quvchining qiziqishi hamda salohiyatini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi. "Nilufar guli" bir yoki bir necha jadvaldan iborat holatda tuzilishi mumkin. Yuqoridagi jadvalda "ra" ochiq bo'g'ini misol qilib olindi, bunda o'quvchi "ra" bo'g'inidan boshlanadigan so'zlarni topib yozishi kerak bo'ladi. "Nilufar guli" metodida mashg'ulotda qatnashayotgan har bir o'quvchi qaysi bo'g'ingda "r" tovushini mustahkamlash, u uchun qiyinchiliksiz bo'lsa shu bo'g'inni javalga kiritilsa, o'quvchining vaqtini olmaydi, uni ortiqcha toliqtirmaydi, mashg'ulotdan zeriktirmaydi. Bu metod orqali o'quvchining kitob o'qishga bo'lan qiziqishi oshadi, lug'at boyligi kengayib boradi, topqirlik qobiliyati rivojlanadi, fan, soha, texnika, kasb-hunar, tabiatga bo'lgan qiziqishi ortib boradi, chunki o'quvchi so'z topishda barcha yo'nalishlarga murojat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi Nizom .- 2015
2. M.Ayupova Logopediya – T,: 2014

3. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya - T.; 2014

4. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Hamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.jalolova, N.Z.Adibova – T.; 2013